

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

BEGIMQULOV SHERZOD ABDIRASULOVICH

QUYOSH NURIDA ISHLAYDIGAN KO'P STERJENLI LAZERLAR

01.04.11 – Lazer fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
диссертации**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Begimqulov Sherzod Abdirasulovich Quyosh nurida ishlaydigan ko'p sterjenli lazerlar.....	3
Бегимқулов Шерзод Абдирасулович Мульти-стержневые лазеры с солнечной накачкой.....	21
Begimqulov Sherzod Abdirasulovich Solar-pumped multi-rod lasers.....	40
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	44

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

BEGIMQULOV SHERZOD ABDIRASULOVICH

QUOSH NURIDA ISHLAYDIGAN KO'P STERJENLI LAZERLAR

01.04.11 – Lazer fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/FM1160 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Payziyev Shermaxamat Daliyevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshqobilov Nafas Beknazarovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Eshonqulov G'ofur Boboqulovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «16» May soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11, faks: (99862) 224-67-00.)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (795 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11, faks: (99862) 224-67-00 .)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «07» 05 kuni tarqatildi.

(2025 yil «07» 05 dagi 7 - raqamli reestr bayonnomasi).



U.O.Kutliev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

K.R.Yakubov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotibi, fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent

U.Q.Sapayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahonda hozirgi kunda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo'lgan, ekologik toza, barqaror va iqtisodiy foydali energiya manbai hisoblanadigan quyosh energiyasidan unumli foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda quyosh energiyasidan lazerlarda optik damlash manbai sifatida foydalanib yangi lazer texnologiyalarini yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda va ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Ammo, olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarga qaramay hozirgi paytda quyosh lazerlarining samaradorligi amaliyotda qo'llash uchun yetarli darajaga yetmagan va shu nuqtai nazardan quyosh energiyasini lazer nuri energiyasiga aylantirishdagi muammolarni hal qilish va yuqori samarali quyosh lazerlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda so'ngi vaqtlarda quyosh lazerlarining asosiy muammolaridan biri samaradorligining pastligi bo'lib uni oshirish yo'llari o'rganilmoqda. Samaradorlikni oshirishning bir qancha usullari mavjud, jumladan: yutilish spektri quyosh radiatsiyasi spektrining katta qismini qamrab oladigan faol elementlarni topish, asosiy va ikkilamchi konsentratörler orqali faol elementga ko'proq yorug'likni yo'naltirish, samarali sovutish tizimlari va ko'p sterjenli faol elementlardan foydalanish, va boshqalar. Ushbu muammolarni o'rganish quyosh lazerlarining samaradorligini oshirishdagi eng dolzarb vazifalari hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'ngi vaqtlarda, quyosh energiyasidan keng ko'lamda foydalanilshga qiziqish ortib borayotganligi sababli quyosh nurida ishlaydigan lazerlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Quyosh energiyasini lazer energiyasiga aylantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan lazer fizikasining dolzarb muammolari bo'yicha tadqiqot va inovatsion ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur soxadagi olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar yo'nalishlari xamda ularning amaliyotga qo'llanilishi «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi»¹ da aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2021-yil 1-apreldagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi va 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorida hamda mazkur foliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi qarori

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning IV «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa ilg‘or texnologiyalar asosida texnologiyalar va qurilmalar yaratish» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro miqyosda quyosh lazerlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan bir qator yetakchi ilmiy markazlar va universitetlar mavjud. Masalan, AQShning MIT (Massachusetts Institute of Technology), Portugaliyaning (Nova University of Lisbon) va Caltech (California Institute of Technology) kabi universitetlarida quyosh lazerlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, Yevropada Germaniyaning Fraunhofer instituti, Yaponiyaning Kyoto universiteti va Xitoyning Pekin universiteti ham quyosh lazerlari sohasida muhim ilmiy ishlanmalar va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

Keng sohali quyosh nurini monoxromatik lazer nuriga aylantirish jarayonlarini va quyosh lazerinining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy masalalarini yechishga xorijlik olimlardan jumladan, T.Yabe, T.Funatsu, T.Dinh, T.Saiki, D. Liang, Z. Guan, Z. Cai, T. Motohiro va boshqalar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Payziyev, Kh.Makhmudov, S.Bakhramov, K.Zikrillayev, A. Sherniyozov va boshqalar quyosh energiyasini lazer nuri energiyasiga aylantirish jarayonlarini tadqiq qilishga munosib hissa qo‘shganlar.

Biroq shu bilan birga, quyosh lazerlari yutilish samaradorligini oshirish uchun bir xil hajmdagi faol muhitni ko‘p sterjenli (KS) konfiguratsiyalari quyosh lazeri nurlanishining chiqish quvvatiga ta‘sirini o‘rganish va bu boradagi tadqiqotlarni rivojlantirishga yetarlicha e‘tibor berilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq «Turli usullar bilan uyg‘otiluvchi lazerlarning yangi materiallar va texnologiyalarni qo‘llash asosida samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq qilish» (2021-2024) ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyosh lazeri samaradorligini oshirish uchun ko‘p sterjenli faol muhitlardan va sensibilizatorlardan tashkil topgan turli lazer konfiguratsiyalarini Monte Karlo fotonlarni kuzatish metodiga asoslangan simulyatsiya usuli bilan o‘rganib yuqori lazer chiqish quvvati va samaradorligiga ega bo‘lgan optimal konfiguratsiyalarni aniqlash bo‘yicha yangi yechimlarni taklif qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

quyosh lazerining simulyatsion modelini Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish metodi asosida ishlab chiqish;

Nd:YAG faol muhiti bilan Ti:Sa sensibilizatori kombinatsiyasidan tashkil topgan kompozit strukturali lazer konfiguratsiyasi uchun simulyatsion modelni ishlab chiqish;

uch sterjenli quyosh lazerining simulyatsiya modelini ishlab chiqish va uning ishonchliligini eksperimental tadqiqotda olingan ma'lumotlar asosida baholash (Validatsiya qilish);

Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Cr:Nd:YAG faol muhitlarini quyosh lazerlarida qiyosiy baholash orqali uch sterjenli faol muhitlardan iborat bo'lgan konfiguratsiyalar uchun simulyatsiya usuli bilan samarali faol muhitni aniqlash;

past (<1kWatt) va yuqori (>1kWatt) optik damlash rejimlarida bitta sterjenli va ko'p sterjenli quyosh lazerlarida samaradorlikni taqqoslash;

termal effektlarni hisobga olgan holda, ko'p sterjenli konfiguratsiyalarda lazer chiqish quvvatini hamda bitta sterjenli faol muhit o'rniga ko'p sterjenli konfiguratsiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti qattiq holatdagi bitta va ko'p sterjenli Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Cr:Nd:YAG faol muhitlari, sensibilizatorlar, Ti:Sa, Geliostat ko'zguli parabolik konsentrator (PK), ikkilamchi konsentratorga quyosh nurlarini yanada fokuslovchi asferik linza, konus shaklidagi ikkilamchi konsentrator.

Tadqiqotning predmeti quyosh nurlarining bir va ko'p sterjenli lazer faol muhiti bilan o'zaro ta'sirlanishidagi fizik jarayonlari: fotonlarning faol muhitda yutilishi, temperatura taqsimoti, temperatura taqsimotiga bog'liq bo'lgan termik stress, quyosh nurlanishining keng polosali spektri bilan optik damlangan faol muhitlarda lazer nurlanishini hosil qilish jarayonlari.

Tadqiqotning usullari. Lazerning bir va ko'p sterjenli (KS) faol muhiti, quyosh nurlanishi va faol muhitlarning spektral xususiyatlari hisobga olinib, lazer tizimlarida sodir bo'ladigan tasodifiy jarayonlarni simulyatsiya qilishga asoslangan usullar qo'llaniladi. Simulyatsiya modeli (SM) Monte-Karlo fotonlar yo'lini kuzatish metodidan foydalanishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish metodi asosida ko'p sterjenli quyosh lazerining simulyatsion modeli ishlab chiqilgan;

ilk bor Nd:YAG bilan Ti:Sa sensibilizatorini kombinatsiyasi asosidagi kompozit strukturali Nd:YAG/Ti:Sa/Nd:YAG faol muhit uchun simulyatsion modeli ishlab chiqilgan va chiqish quvvatini 25% gacha oshirish mumkinligi ko'rsatilgan;

uch sterjenli quyosh lazerining simulyatsiya modelini ishonchliligi eksperimental tadqiqotda olingan ma'lumotlar bilan solishtirish asosida tasdiqlangan (model validatsiya qilingan) va bunda hisoblash aniqligi 5% atrofida bo'lishi ko'rsatilgan;

Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Cr:Nd:YAG faol muhitlarini uch sterjenli quyosh lazerlarida ishlatilishida qiyosiy baholangan. Unga ko'ra Cr:Nd:YAG da eng

yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi, ya'ni Cr:Nd:YAG uchun samaradorlik Nd:YAG ga nisbattan 2 baravar, Ce:Nd:YAG ga nisbattan esa 1.7 baravar yuqori chiqishi aniqlangan;

past va yuqori optik damalash quvvatida quyosh lazerining turli xil ko'p sterjenli konfiguratsiyalarini o'rganish natijasida, ko'p sterjenli konfiguratsiyalar orqali termik muammolarni hal qilish mumkinligi ko'rsatilgan va bunda 7 sterjenli konfiguratsiya uchun samardorlik eng yuqori chiqishi aniqlangan;

ilk bor termal effektlarni hisobga olgan holda, ko'p sterjenli konfiguratsiyalar umumiy effektiv hajmi bir hil bo'lgan bir sterjenlik konfiguratsiyaga nisbatan lazer chiqish quvvati taxminan 2.5 baravargacha yuqoriroq bo'lishi mumkinligi simulyatsiya usuli bilan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish metodi asosida ko'p sterjenli quyosh lazerining simulyatsion modellari yaratilgan;

kompozit strukturali Nd:YAG/Ti:Sa/Nd:YAG faol muhit asosidagi lazer uchun simulyatsion model yaratilgan;

Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Cr:Nd:YAG faol muhitlarini uch sterjenli quyosh lazerlarida ishlatilishida Cr:Nd:YAG uchun samaradorlik eng yuqori ekanligi asoslangan;

ko'p sterjenli konfiguratsiyalar orqali termik muammolarni hal qilish mumkinligi asoslangan;

7 sterjenli lazer konfiguratsiyasi uchun samardorlik eng yuqori chiqishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi fotonika va lazer fizikasidagi hozirgi kundagi usullar va yondashuvlardan foydalanilganligi bilan tasdiqlanishi, olingan natijalar lazer faol muhitida yuz beradigan optik jarayonlarning fizik mexanizmlari bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlarga asoslanganligi va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy natijalariga to'liq mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyosh bilan damlanadigan bitta va ko'p sterjenli ishlab chiqilgan yangi simulyatsion model quyosh yordamida optik damlanadigan lazerlar samardorligini oshirish bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borishda va optimal yechimlarini aniqlashda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, taklif qilinayotgan ilmiy yechimlar quyosh nurida ishlaydigan ko'p sterjenli lazerlarning optimal konfiguratsiyalarini aniqlash, samardorligini oshirish, quyosh energiyasidan foydalanishda yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyosh nurida ishlaydigan ko'p sterjenli lazerlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar loyihalarda:

ko'p sterjenli lazer uchun yutilish, temperatura taqsimoti va termik stress jarayonlarini modellashtirishda olingan ilmiy natijalar xorijiy nashrlardagi bir qator tadqiqotlarda (1. Costa, H., Liang, D., Matos, A., & Almeida, J. (2024, September). Multi-Fresnel-lens pumping approach for simultaneous emission of

seven TEM00-mode beams with 3.73% conversion efficiency. Photonics Vol. 11, No. 9, p. 889, MDPI; 2. Almeida, J., Costa, H., Vistas, C. R., Tibúrcio, B. D., Matos, A., & Liang, D. (2024). Multirod Pumping Approach with Fresnel Lens and Ce: Nd: YAG Media for Enhancing the Solar Laser Efficiency. Energies, 17(22), 5630; 3. Matos, A., Liang, D., Costa, H., Tibúrcio, B. D., & Almeida, J. (2025). Five-Ce: Nd: YAG-rod solar laser approach with TEM00-mode collection efficiency of 51.7 W/m². Applied Optics, 64(4), 797-807; 4. Boutaka, R., Liang, D., Bouadjemine, R., & Hendaoui, N. (2024). Design of high-power Nd: YAG solar laser pumped with off-axis parabolic concentrators. Optoelectronics and Advanced Materials-Rapid Communications, 18(November-December 2024), 516-524) foydalanilgan. Natijalardan foydalanish ko‘p sterjenli laser konfiguratsiyalari uchun simulyatsion modellar yordamida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarda lazerlarning samaradorligini 1.5 baravardan ko‘proqqa oshirish mumkinligini asoslash imkonini bergan;

Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodi asosida ishlab chiqilgan model asosida olingan natijalardan O‘zR FA Materialshunoslik instituti “O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Materialshunoslik instituti Quyosh Sandonida sintez qilingan keramikalarda fazaviy o‘zgarishlar jihatlari” mavzusidagi AL-4821023123 loyihasida ilmiy-texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 17-dekabrda № 2/1255-2797 sonli ma’lumotnomasi). Natijalardan foydalanish geliostat va konsentrator fasetlarining egrilik radiusi noaniqliklarining konsentrator fokusidagi nurlanishga kuchli ta’sir qilishini aniqroq tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 7 ta konferentsiyada, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan. 1 ta kompyuter dasturiga guvoxnoma olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olingan asosiy natijalar jami 12 ta ilmiy ishlarda chop etilgan, ulardan 4 ta ilmiy maqola, shu jumladan 1 ta xalqaro (Web of Science/Scopus bazasidagi jurnalida) va 3 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishning tuzilishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ilmiy ishning hajmi 107 bet matndan iborat bo‘lib, ularda 37 ta rasm va 7 ta jadval mavjud.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining va bu mavzuga oid tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va metodlari, shuningdek dissertatsiya tadqiqotining respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning

ustuvor yo‘nalishlari bilan muvofiqligi aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning joriy etilishi, aprotatsiyasi, shuningdek dissertatsiya hajmi va tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « **Muammoning zamonaviy holati** » nomli **birinchi bobida** adabiyotlar tahlili asosida so‘ngi vaqtlardagi tadqiqot natijalariga ko‘ra quyosh lazerlarida faol muhitni ikkita usul bilan optik damlash mumkin. Birinchisi ko‘ndalang optik damlash, ikkinchisi bo‘ylama va ko‘ndalang optik damlash orqali faol muhitda invers bandlik hosil qilinib lazer nuri olinadi. Ikkilamchi konsentratorida joylashgan faol muhitni bo‘ylama va ko‘ndalang damlash rejimida ishlatilsa quyosh lazerining samaradorligi yuqori chiqishi aniqlangan. Lekin bo‘ylama-ko‘ndalang (kombinatsion) damlash rejimida yorug‘lik yutilish taqsimoti notekis taqsimlangani uchun faol muhitni ishlatishda qo‘shimcha termik muammolar yuzaga keladi. Bunday termik effektlar (jarayonlar) lazer kristalini sinishiga, lazer pastki energiya sathining termik bandligini oshirishga, termik linza hosil bo‘lishiga va shunga o‘xshash boshqa oqibatlariga olib keladi va lazer umumiy samaradorligiga salbiy ta‘sir qiladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida quyosh lazerlarining asosiy muammolari aniqlandi va dissertatsiya ishi uchun maqsad va vazifalar belgilandi.

Dissertatsiyaning “**Parabolik konsentratorli quyosh lazeri**” nomli **ikkinchi bobida** dissertatsiyada qo‘yilgan masalalarni yechish uchun mo‘ljallangan quyidagi tajriba qurilmalari va usullaridan: Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodi (MCPT-Monte-Carlo Photon Tracing), Quyosh nurlanishi spektri, Nd:YAG faol muhitining yutilish spektrlari, Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodi asosida ishlab chiqilgan simulyatsion modelda Nd:YAG faol muhiti uchun CdZnS ni tashqi sensibilizator sifatida foydalanish, Geliostat - parabolik konsentratorlardan foydalanilgan. Ushbu bobda yuqorida keltirilgan tajriba qurilmalari va usullarining har biri to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Kichik quvvatlarda ishlaydigan bir va uch sterjenli quyosh lazerlari**” nomli **uchinchi bobida** Ushbu bobda quyosh lazerlari uchun bir nechta sterjenli faol muhitlarni ko‘ndalang va kombinatsion damlash rejimlarida ishlashi o‘rganilgan. Uch sterjenli Ce:Nd:YAG quyosh lazerining simulyatsion modeli ishlab chiqilib eksperiment natijalari bilan solishtiriladi. Ishlab chiqilgan simulyatsion modelning ishonchliligini eksperimental tadqiqot parametrlarida solishtirilgan. Uch sterjenli quyosh lazerlarining simulyatsion modeli ishlash jarayonlari tekshirilgan.

Bu yerda taqdim etilgan simulyatsiya modeli yaqinda elon qilingan uch sterjenli Ce:Nd:YAG aktiv muhitlarida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotga asoslangan. Bu yerda biz quyidagi qismlar va elementlardan iborat quyosh lazerini ko‘rib chiqamiz:


- Parabolik konsentrator

Ushbu ish parabolik konsentrator bilan geliostat ko‘zgularining kombinatsiyasi birlamchi konsentrator sifatida ko‘rib chiqiladi. Geliostat

ko'zgulari va kumush bilan qoplangan parabolik konsentratorning sirtini qaytarish koeffitsiyenti mos ravishda 93,5% va 80% ga o'rnatiladi. Natijada umumiy qaytarish koeffitsiyenti 74,8% ga teng bo'ladi. Parabolik konsentratorning yuzasi 0,5 m² deb hisoblandi, shundan lazer tizimini soyasi 0,1 m² ekanligi aniqlandi. Ushbu parametrlar ishlab chiqilgan simulyatsiya modelida sozlanishi yoki osongina o'zgartirilishi mumkin.

- Asferik linza

Ikkilamchi konsentrator va asosiy konsentrator tizimi o'rtasida diametri 84 mm, qalinligi 37 mm, old yuzasi egrilik radiusi 43 mm bo'lgan asferik linza (1a-rasm) joylashtirilgan. Asferik linza asosiy konsentratoridan keladigan quyosh nurlarini yanada ko'proq fokuslash uchun ishlatiladi. 1b-rasmda konus shaklidagi ikkilamchi konsentrator va uchta sterjenli faol muhit sxematik tarzda taqdim etilgan.



1-rasm. Ikkilamchi konsentrator. a) Asferik linza va ikkilamchi konsentrator b) Konus shaklidagi ikkilamchi konsentrator.

- Konussimon ikkilamchi konsentrator

Kesik konus shaklidagi ikkilamchi konsentrator tarqoq quyosh nurlarni aktiv elementlarga qayta yo'naltirishga yordam beradi (1b-rasm). Uzunligi 1,9 sm bo'lgan kesik konus shaklidagi konsentratorning katta asosi diametri $D=0,9$ sm va kichik asosi diametri $d=0,45$ sm bo'lishi hisobga olinadi. Yana bir muhim parametr - bu ikkilamchi konsentrator ichki devorlarini qaytarish koeffitsiyenti 94% ga teng qilib o'rnatilgan.

- Sovutish tizimi


Quyosh lazeri faol muhitlarida harorat rejimini aniqlash uchun lazer sterjenlari yuzasida issiqlik uzatish koeffitsientini o'rnatish kerak. Biz bu koeffitsientlarni 100 sm³/s oqim tezligini va 20⁰ C sovutish suvi haroratini etiborga olgan holda hisobladik.

Ushbu tadqiqotda foydalanilgan simulyatsiya modeli havola qilingan eksperimental tadqiqotda konsentratorning geometrik va fizik parametrlarini yaqindan moslashtirish uchun mo'ljallangan. 1.jadvalda quyosh lazerining

chiqish samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa tegishli parametrlar (turli manbalardan olingan) bilan birga simulyatsiya modelidan olingan taxminiy parametrlar keltirilgan. Jadvaldagi parametrlarga P_{abs} - lazer faol muhiti ichida yutilgan energiya, P_{pump} - ikkilamchi konsentratorga kiradigan umumiy energiya, N_{abs} - yutilgan fotonlar soni, N_{pump} - konsentratorga tushgan fotonlarning umumiy soni.

Jadval.1. Lazer chiqish quvvatini hisoblash uchun zarur bo'lgan parametrlar

Parameters	Ce:Nd: YAG
Yutilish samaradorligi P_{abs} / P_{pump}	$(23.92 \pm 0.001) \%$
Yutilish samaradorligi N_{abs} / N_{pump}	$(16.63 \pm 0.001) \%$
Ichki yo'qotish	0.004
Kvant samaradorligi	0.86
Yutilish taqsimoti va rezonator modasining o'zaro moslik koeffitsiyenti	0.94
Sovutish suvi harorati	$20 \text{ }^\circ\text{C}$
Sterjen uzunligi	2.5 sm
Sterjen radiusi	0.125 sm
Nur sindirish ko'rsatgichi	1.8
Rezonator chiqish ko'zgusi qaytarish koeffitsiyenti	97.5 %



2-rasm. Nisbiy yutilish (yutilgan fotonlar soni) taqsimoti

1-jadvalda keltirilgan parametrlar, 2-rasmda ko'rsatilgan yutilish taqsimoti bilan bir qatorda, to'rt sathli lazerlar uchun tezlik tenglamalari orqali damlash quvvati


va quyosh lazerining chiqish quvvati o'rtasidagi munosabatni ifodalash uchun foydalaniladi:

$$\phi = \tau_c \iiint_{\text{volume}} \frac{R_p(1+f) - fN_t / \tau}{(1+f) + V / (\phi c \sigma_e \tau |u|^2)} dV \quad (1)$$

Keyin chiqish quvvati quyidagicha aniqlanadi.


$$P_{out} = k\phi \quad (2)$$

bu yerda proportsionallik koeffitsienti $k = hv\gamma_2 c / 2L_e$ (bu yerda γ_2 rezonator chiqish ko'zglasining o'tkazish koeffitsiyenti, L_e konsentrator uzunligi, h -Plank doimiysi, ν -laser nuri chastotasi, c -yorug'lik tezligi) bu rezonator parametrlariga bog'liq. 1) formula kvazi-uch sathli lazer tizimlari uchun tezlik tenglamalaridan olingan. Binobarin, hisoblashdagi noqulayliklarga qaramay, aniqlik yuqori. 3-rasmda eksperimental tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar nuqtalari bilan birga modellashtirilgan chiqish chizig'i (qizil chiziq bilan) ko'rsatilgan. Ushbu grafikdagi natijalar simulyatsiya modeli va eksperiment o'rtasidagi yuqori darajadagi moslikni ko'rsatdi. 3-rasmda ushbu moslikning ko'rinishi keltirilgan va ishlab chiqilgan model ko'p sterjenli lazerlarni o'rganish uchun ishlatilishi mumkinligini aniqlandi.




3-rasm. Quyosh lazerida chiqish quvvatining kirish quvvatiga bog'liqligi

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Yuqori quvvatlarda ishlaydigan bir va ko'p sterjenli quyosh lazerlari”** deb nomlangan va ushbu bobda Monte-Karlo foton yo'lini kuzatish metodi bilan ko'p sterjenli turli konfiguratsiyali quyosh lazerlarining simulyatsion modeli ishlab chiqiladi. Past (<1kWatt) va yuqori (>1kWatt) optik damlash rejimlarida bitta sterjenli va ko'p sterjenli quyosh lazerlari o'rtasida ishlash samaradorligini taqqoslandi. Bu ishda ko'p sterjenli konfiguratsiyalarning yutish samaradorligi bilan bitta sterjenli faol muhit yutilish samaradorligi o'rganib chiqiladi. Termal effektlarni hisobga olib ko'p sterjenli konfiguratsiyalarning lazer chiqish quvvati samaradorligiga ta'siri qanday bo'lishi aniqlanadi. Aniqlangan natijalar asosida quyosh lazeri chiqish quvvatiga nimalar kuchliroq tasir qilishi o'rganib chiqiladi. Agar ko'p sterjenli lazerlardan foydalanish istiqbolli bo'lsa bu turdagi konfiguratsiyani quyosh lazerlarida samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi.



4-rasm. Ikilamchi konsentratorida joylashtirilgan bir sterjenli faol muhit

Qaralayotgan ikkilamchi konsentrator uchun bir sterjenli faol muhitning optimal radiusini topishda quyidagi 4-rasmda tasvirlangan simulyatsion modeldan foydalanildi. Simulyatsion model asosida hisoblangan natijalar 5-rasmda ko'rsatilgan, (a) faol muhit sterjen o'lchamiga nisbatan yutilish samaradorligi qiymatlari tasvirlangan. Yutilish samaradorligi radius ortishi bilan proporsional ortib borishini ko'rsatadi, ammo sterjen radiusi 0,25 sm etganidan so'ng, yutilish samaradorligining o'zgarishi juda kichik bo'lib, ikkilamchi konsentrator chegarasiga yetadi.



5-rasm. a) Turli radiusli sterjenlar uchun yutilish samaradorligi va b) Sterjen radiuslariga mos keladigan lazer chiqish quvvatlari.

Endi muhokama qilinishi kerak bo'lgan savol, ko'p sterjenli tizimlar bitta sterjenli quyosh lazer tizimlaridan ustun turadimi. Yuqorida aytib o'tilganidek, qiyosiy mezonni yaratish muhimdir. Ushbu taqqoslash uchun biz ko'p sterjenlar va bitta sterjen hajmlari quyidagicha teng bo'lishini taklif qilamiz:


$$\sum_{i=1}^n r_i^2 = R^2. \quad (3)$$

bu yerda r_i - ko'p sterjenli faol muhitlardan birining radiusini, R - esa bitta faol muhitning radiusini bildiradi. Dastlab, quyosh lazerining samaradorligini oshirish uchun optimal 0,2 sm bitta sterjenni kichikroq sterjenlarga bo'lish, ko'rsatilgan.

2.Jadval. Ko‘p turli konfiguratsiyalarni 0,2 sm bo‘lgan bitta sterjen bilan taqqoslash

Sterjenlar soni	Sterjenlar radiusi [sm]	Yutilish samaradorligi %	Sterjenlar soni	Sterjenlar radiusi [sm]	Yutilish samaradorligi %
1	0.2	16.84	6	0.0816	15.67
2	0.1414	15.37	6	0.0816	15.31
3	0.1155	15.77	7	0.0756	15.73
4	0.1	15.63	7	0.0756	15.03
4	0.1	15.1	8	0.0707	14.7
5	0.0894	15.44	8	0.0707	15.46
5	0.0894	14.88			

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yutilish samaradorligi bitta sterjenli faol muhit konfiguratsiyasida yuqori qiymatiga yetadi va har qanday ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar erishilgan darajadan yuqori chiqdi. Biroq, etiborli jihati shundaki 2 jadvalda uch va yetti sterjenli faol muhitlar yutilish samaradorligi bitta sterjenli konfiguratsiyasining yutilish samaradorligiga deyarli mos keladi va jadvalda sezilarli darajada ajralib turadi. Yutilish xususiyatlarini solishtirgandan so‘ng, bu ishda termal effektlarni hisobga olgan holda bitta, uch va yetti sterjenli konfiguratsiya uchun lazer ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Quvvat 500 Watt damlash darajasiga ko‘tarilganda issiqlik effektlari sezilarli bo‘ladi. Ko‘p sterjenli konfiguratsiyalarning bir sterjenliga nisbatan biroz yaxshilanishi kuzatilmoqda. Kichikroq quvvatli, shartli ravishda 1 kWatt dan past bo‘lgan konsentratorlar uchun ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar bir faol muhitli konfiguratsiyaga nisbatan lazer chiqish quvvati samaradorligini sezilarli darajada yaxshilamaydi. Shunga qaramay, ba’zi bir ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar, masalan, uch va yetti sterjenli konfiguratsiyalar, bitta sterjenli faol muhitga nisbatan biroz yuqoriroq samaradorlikni keltirib chiqarishi mumkin.



6-rasm. Radiusi 0,2 sm bo‘lgan bitta sterjen uchun lazer ko‘rsatkichlari va mos keladigan ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar.


Shunday qilib, bizning maqsadimiz oldingi bo‘limda bo‘lgani kabi, shartli ravishda 1 kWatt dan oshadigan yuqori damlash quvvati ostida bitta sterjenli va ko‘p sterjenli quyosh lazerlarini tekshirishdir. Lazer chiqish quvvatining maksimal chiqish quvvati 0.25 sm bo‘lganda erishildi.

3.Jadval. Eng yuqori ko‘rsatkichli ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar


Sterjenlar soni	Sterjenlar radiusi [sm]	Yutilish samaradorligi %
1	0.25	16.88
3	0.1443	16.2
7	0.0945	16.47

Bitta sterjen, uch sterjenli konfiguratsiya va yetti sterjenli konfiguratsiyalarda samaradorlik mos ravishda 16,88%, 16,2% va 16,47% ni tashkil qiladi. Termal effektlarni hisobga olgan holda lazer chiqishini quvvatini hisoblash uchun sterjenlarda harorat taqsimotini hisoblab chiqdik. Ularning shakli va qiymatlari bo‘yicha harorat taqsimoti 7-rasmda ko‘rsatilgan: (a) bitta sterjen maydoni 800 K dan oshadigan, ikkinchisi (b) haroratlar pastroq bo‘lgan uchta sterjen, taxminan 650 K, c) yettitalik sterjenda maksimal temperatura 500 K bo‘lishi aniqlandi. 8-rasmda hisoblangan mexanik termik yuklama taqsimotlari tasvirlangan. Sinish kuchlanishining maksimal chegarasi 250 MPa deb faraz qilsak, radiusi 0,25 sm bo‘lgan sterjen 1300 watt damlash quvvatiga erishganda, yorilish sodir bo‘ladi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, 8-rasmda tasvirlangan boshqa

kristallarning termik yuklamasi darajasi sinish chegarasidan ancha past bo'lishi aniqlandi.




7-rasm. 1300 watt optik damlash quvvatida (a) bitta sterjenda, (b) uchta sterjendan biri, (c) yetti sterjendan iborat markaziy faol muhit va (d) yetti sterjendan bitta tashqi faol muhit haroratning taqsimlanishi.




8-rasm. 1300 watt damlash quvvatida a) bitta sterjenli, b) uchta sterjenlidan biri, c) yettita sterjenlining markaziy faol muhit va d) yetti sterjenning bitta tashqi qismidagi termik yuklamaning taqsimlanishi.

Keyinchalik, 1 va 2 tenglamalarda belgilangan harorat va yutilish taqsimotidan foydalanib, lazer chiqish quvvatlari aniqlandi. Natijalar 9-rasmda tegishli belgilar bilan berilgan.



9-rasm. Termal effektlarni hisobga olgan holda lazer chiqish quvvati.

Rasmda haroratning ta'siri etiborga olinmagan ideal munosabat mavjud bo'lib, u yashil chiziq bilan belgilab, harorat ta'sirini to'liq bartaraf etishni nazarda tutadi. Ko'rishimiz mumkinki, kattaroq o'lchamdagi, shartli ravishda 1kW dan yuqori bo'lgan konsentratorlar uchun ko'p sterjenli konfiguratsiyalar yuqori samaradorlikni namoyish etadi. Ko'rinib turibdiki, ko'p sterjenli konfiguratsiyadan foydalanish harorat ta'sirini qisman yumshatadi va lazerning chiqish quvvatlarini mavjud ideal holatdagi qiymatga yaqinlashtiradi. Binobarin, diametrlarini qisqartirgan holda sterjenlar sonini ko'paytirish samarali sovutishni osonlashtiradi va natijada lazerning chiqish quvvati samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyosh lazerlari uchun yuqori optik damlash quvvatlarida ko'p sterjenli konfiguratsiyalar samaradorlikni oshirishi aniqlandi. Biroq, ularni amalga oshirish eksperimental amalga oshirishda qo'shimcha texnik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tarzda, ko'p rezonatorlar, xususan, quyosh kuzatuv tizimlari bilan jihozlangan mobil quyosh lazerlarida, ularni joylashtirishda muayyan qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Aslida, bunga erishish texnik jihatdan mumkin emas deb mulohaza qilish mumkin, masalan, katta hajmdagi quyosh konsentratorlari uchun o'nta aktiv muhitli sterjen. Shuning uchun biz bir nechta sterjenlarni birlashtirish uchun diffuzion bog'lash texnologiyasidan DB (Difuzion bog'lash) foydalangan holda bitta rezonator orqali ko'p sterjenli konfiguratsiyasini birlashtirishni taklif qilamiz 10-rasm. Ushbu yondashuv nafaqat ko'p rezonatorli tizimlar bilan bog'liq muammolarni chetlab o'tibgina qolmay, balki ko'p sterjenli rejimda kuchli lazer nurlarini yaratishga imkon beradi, bu esa har bir sterjendan lazer chiqishini birlashtirish zaruratini yo'q qiladi.



10-rasm. a) Bir tamoni birlashtirilgan ko‘p sterjenli faol muhitlar va b) Bitta rezonator uchun ikkita tamoni diffuzion bog‘lash usuli bilan birlashtirilgan ko‘p sterjenli faol muhitlar.

XULOSA

1. Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodi asosida ko‘p sterjenli va sensibilizatorli Quyosh lazerlarining simulyatsion modelari ishlab chiqildi.

2. Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodi yordamida Nd:YAG bilan Ti:Sa sensibilizatori asosidagi kompozit strukturali faol muhit uchun simulyatsion modeli ishlab chiqildi. 450 watt kirish quvvatida Nd:YAG, kompozit strukturali Ti:Sa/Nd:YAG va Nd:YAG/Ti:Sa/Nd:YAG faol muhitlarda mos ravishda yutilish samaradorligi 12.68 %, 13.78 %, 14.5 %, ekanligi aniqlandi. Yutilish samaradorliklariga proporsional ravishda quyosh lazerining maksimal chiqish quvvatlari 11 watt, 12.7 watt va 13.74 watt qiymatlarga oshishi aniqlandi. Aktiv elemntga Nd:YAG/Ti:Sa/Nd:YAG ko‘rinishda sensibilizator joylashtirilsa chiqish quvvatini 25% gacha oshirish mumkinligi aniqlandi.

3. Nd:YAG, Ce:Nd:YAG va Cr:Nd:YAG faol muhitlarini quyosh lazerlarida ishlatilishida qiyosiy baholash uchun ko‘p sterjenli faol muhitlardan iborat bo‘lgan quyosh lazerining simulyatsion modeli ishlab chiqildi. Natijalarni taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori samaradorlikka Cr:Nd:YAG dan foydalanganda erishildi. Quyosh nurlarining 500 Watt damlash quvvatida umumiy samaradorlik 5% ni tashkil etdi, bu Nd:YAG lazeridan ikki baravar yuqori, Ce:Nd:YAG samaradorligi esa Nd:YAGdan taxminan 1,7 baravar yuqoriligi aniqlandi. Cr:Nd:YAG ning chiqish quvvatining yuqori bo‘lishi uning yutilish spektri bilan tushuntirish mumkin. Yani Cr ionlarining yutilish koeffitsiyentlari Ce ionlarinikiga nisbatan kichikroq bo‘lganligi uchun fotonning

yutilish uzunligi katta bo‘ladi. Faol muhit bo‘ylama va kombinatsion rejimda ishlatilganda faol muhitning 2.5 smga teng uzunligi yutilish uchun yetarli bo‘lishi aniqlandi.

4. Bo‘ylama va kombinatsion optik damlash rejimida ishlaydigan quyosh lazerlari uchun ko‘p sterjenli konfiguratsiya simulyatsiya usuli yordamida o‘rganiladi. Monte-Karlo foton yo‘lini kuzatish metodidan foydalangan holda uch sterjenli quyosh lazerining simulyatsiya modelini ishlab chiqildi. Ushbu simulyatsion modelning ishonchligi yaqinda elon qilingan eksperimental ma’lumotlardan foydalangan holda tasdiqlandi (validatsiya qilindi).

5. Quyosh lazerining ishlashini baholash uchun qiyosiy taqqoslash amalga oshirildi va turli xil ko‘p sterjenli konfiguratsiyalarni o‘rganish natijasida, uchta va yetti sterjenli konfiguratsiyalar orqali termik muammolarni hal qilish mumkinligi ko‘rsatildi.

6. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p sterjenli konfiguratsiyalarning yutish samaradorligi bitta sterjenli faol muhitnikiga to‘liq yetib bormasa ham, ular juda yaqin chiqdi. Biroq, termal effektlarni hisobga olgan holda, ko‘p sterjenli konfiguratsiyalar sezilarli darajada yaxshilangan lazer chiqish quvvatini ko‘rsatdi. Aslida, bitta sterjenli faol muhit o‘rniga ko‘p sterjenli konfiguratsiyalardan foydalanish chiqish quvvatini ikki baravar oshirdi. Ushbu natijani uchta asosiy omilga bog‘lash mumkin: Yutilish taqsimoti, rezonator yo‘qotishlari va termal effektlar. Bir nechta sterjenlarni o‘z ichiga olgan konfiguratsiyalar bilan bog‘liq texnik muammolarni hal qilsih bo‘yicha yangi yechimlar taklif qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**ИНСТИТУТ ИОННО-ПЛАЗМЕННЫХ И ЛАЗЕРНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

БЕГИМҚУЛОВ ШЕРЗОД АБДИРАСУЛОВИЧ

МУЛЬТИ-СТЕРЖНЕВЫЕ ЛАЗЕРЫ С СОЛНЕЧНОЙ НАКАЧКОЙ

01.04.11- Лазерная физика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего Образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.3.PhD/FM1160

Диссертация выполнена в Институт ионно-плазменных и лазерных технологий. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Пайзиев Шермахамат Далиевич
доктор физика-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ешқобилов Нафас Бекназарович
доктор физика-математических наук, профессор

Ешонқулов Гофур Бобоқулович
кандидат физико-математических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «16» май 2025 года в 19:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862)224-66-11, факс: (99862) 224-67-00.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № 795). (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-66-11, факс: (99862) 224-67-00.)

Автореферат диссертации разослан « » 2025 года.
(протокол рассылки № от « » 2025 года).



У.О. Кутлиев,

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук, профессор

К.Р. Якубов,

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученой степени, кандидат физико-математических наук, доцент

У.К. Сапаев,

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мире особое внимание уделяется эффективному использованию солнечной энергии, которая является одним из видов возобновляемых источников энергии и считается экологически чистым, устойчивым и экономически выгодным источником энергии. В частности, создание новых лазерных технологий с использованием солнечной энергии в качестве источника оптической накачки в лазерах в настоящее время приобретает особое значение, и научные исследования в этой области ведутся быстрыми темпами. Однако, несмотря на многолетние научные исследования, эффективность солнечных лазеров в настоящее время недостаточна для практического использования, в связи с этим особое внимание уделяется решению проблем преобразования солнечной энергии в энергию лазерного излучения и созданию высокоэффективных солнечных лазеров.

Одной из основных проблем солнечных лазеров в последнее время во всем мире является их низкая эффективность, и изучаются способы ее повышения. Существует несколько способов повышения эффективности, в частности: поиск активных элементов, спектр поглощения которых покрывают большую часть спектра солнечного излучения, направление большего количества света на активный элемент через первичные и вторичные концентраторы, использование эффективных систем охлаждения и много-стержневых активных элементов и т.д. Исследования этих проблем считаются самыми важными задачами для повышения эффективности солнечных лазеров.

В нашей республике в связи с растущим интересом к широкому использованию солнечной энергии большое внимание уделяется лазерам на солнечных батареях. Ведутся научно-исследовательские и инновационные работы по актуальным проблемам лазерной физики, направленные на повышение эффективности преобразования солнечной энергии в лазерную. Развитие возобновляемых источников энергии в нашей стране стало одним из важных направлений государственной политики. Направления фундаментальных и прикладных исследований в этой области и их применение на практике отражены в «Стратегии развития возобновляемых источников энергии в Республике Узбекистан до 2030 года»¹.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени соответствует задачам, обозначенным в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-6097 «Об утверждении

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан, от 04.10.2019 г. № ПП-4477 «Стратегии развития возобновляемых источников энергии в Республике Узбекистан до 2030 года»

Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП-6198 «О совершенствовании системы государственного управления развитием научной и инновационной деятельности» от 1 апреля 2021 года, № ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области физики» от 19 марта 2021 года и других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Научно-исследовательская работа была выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и техники Республики Узбекистан: IV «Разработка методов использования возобновляемых источников энергии, создание технологий и устройств на основе нанотехнологий, фотоники и других передовых технологий».

Степень изученности проблемы. В мире существует ряд ведущих научных центров и университетов, проводящих исследования в области солнечных лазеров. Например, научные исследования солнечных лазеров проводятся в таких университетах, как Массачусетский технологический институт (MIT) США, Португалия (Новый университет Лиссабона) и Калифорнийский технологический институт (Калифорнийский технологический институт). Кроме того, в Европе Институт Фраунгофера в Германии, Киотский университет в Японии и Пекинский университет в Китае вносят свой вклад в развитие важных научных разработок и новых технологий в области солнечных лазеров.

Преобразование широкополосного солнечного света в монохроматический лазерный луч и повышение эффективности солнечных лазеров являются важными научными задачами, к решению которых внесли значительный вклад зарубежные ученые, такие как T.Yabe, T.Funatsu, T.Dinh, T.Saiki, D. Liang, Z. Guan, Z. Cai, T. Motohiro и другие.

Среди отечественных ученых Ш. Пайзиев, Х. Махмудов, С. Бахрамов, К. Зикриллаев, А. Шерниязов и другие внесли достойный вклад в исследование процессов преобразования солнечной энергии в лазерную энергию.

